

O'ZBEKISTON RBSPUBLIKASY XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

JISMONIY TARBIYA VA JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

"Himoya kilishga ruxsat beraman"

Jismoniy tarbiya va jismoniy
madaniyat fakulteti dekani

_____ dots. Muqimov O.

“ _____ ” _____ 2008 y.

**5140700 – Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat yunalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**“Maktabda badiiy bezak ishlarida naqshdan foydalanish” movzusida
bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Abduraxmonov Baxrom

Ilmiy rahbar: k.o`qit. Umirov Abdunazar

Ishni himoyaga tavsiya etaman _____ k.o`qit. Umirov Abdunazar _____
(ilmiy raxoar ismiva sharifsh) (imzo)

BMI Tasviriy san`at va ishlab chiqarish asoslari kafedrasida
yig`ilishning qarori bilan (Qaror № 6, 12.05.2008 y)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

dots. _____ Umarov R _____
(Ismi, sharifi)

_____ (isho)

Jizzax - 2008

MUNDARIJA

I.KIRISH.

O`zbekistan Respublikami Prezidenta Islom Karimovning «JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZ, O`ZBEKISTON ShAROITIDA uni BARTARAF ETISHNING YO`LLARI VA ChORALARI» asarini o`rganish.....	2
1.1. Maktabda badiy bezash ishlarining maqsadi va vazifalari.....	7
1.2. Amaliy bezak san`ati va uning uziga xos xususiyatlari.	14
II.MAKTABDA BADIY BEZAK ISHLARIDA NAQSHDAN FOYDALANISH MOVZUSINING TAXLILY QISMI.	24
2.1. Dekorativ-amaliy san'atning maktab badiy bezash ishlaridagi roli.....	24
2.2. Badiy bezash ishlarida foydalaniladigan asbob-uskunalar	32
2.3. Amaliy-bezak san'atila tabiiy shakllarni stilizshshyalash.....	45
2.4. Qog`ozga yog`och buyimlarga naqsh solish texnologiyasi.	47
III.XULOSA.....	49
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR	53
Reproduksiyalar.....	55

I.KIRISH.

O`zbekistan Respublikami Prezidenta Islom Karimovning
«JAHON MOLIVAVIY-IQTISODIY INQIROZ, O`ZBEKISTON
SHAROITIDA uni BARTARAF ETISHNING YO`LLARI VA
CHORALARI»

Mamlakatimizda barqoror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan iqtisotlar bugungi kunda o`zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida IQTISODiyotda chuqur tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish, aholidaromadlarining o`shishini ta'minlash, samarali tashii savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo`jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik soxiasini barqoror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqpar ho`lga kiritildi.

O`ZBEKISTONning xalharo IQTISODiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rohbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy iqtisotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish YO`LLarining anii va to`g`ri ko`rsatib berilganligi bosh maqsad yo`lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo`lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o`zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat - milliy IQTISODiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashuvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar

xalharo maydondagi ra?obatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalharo mehnat taqsimotidagi o`z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko`rsatadi.

Biroq, o`z o`rnida ta'kidlash lozimki, JAHON IQTISODiyotiga integratsiyalashuv va globallashuvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ma'lum ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi IQTISODiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o`rtasida ijtimoiy-IQTISODiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik taxdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholisoni o`zgarishining keskin farkdanishi kabi holatlar JAHON xo`jaligining yaxlit tizim sifatida barqoror rivojlanishiga to`squinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarining yana bir xususiyatli jihati - jahonning bir mamlakatida ro`y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o`z ta'sirini o`tkazishi hisoblanadi. Jahon hamjamiyati bugungi kunda boshidan kechirayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashuv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo`ladi.

Shunga ko`ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-Iqtisodiy rivojlanishining joriy va isti?boldagi chora-tadbirlarini belgilashda jachon mininiii ip?irosh oqibatlarining ta'sirini har tomonlama xisobga olinadi, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar pi.sirp puk mil i;pmidai shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshmrpishmmi iim)to piladi. Bu boradagi chora-tadbirlar Prezidentimiz I.Karimovning«Jag`on moliyaviy-iqtisodiy inqiroz

„O‘zbekiston shirotida uii oartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli asarlarida kssh na batafsil bayon qilib berilgan. Asarda JAHONmoliyaviy iqtisodiy INQIROZning mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish tahlilari, kelib chiqish sabablari, uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga tasiri, oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo‘lish ommilar tahlil qilib berilgan. Shuningdek, mamlakatimiz kashlari uchuy goyat murakkab va ogir bo‘lishiga haramay 2008 yilda fshshiai mjoOmy natmja va yutuklar baholanib, respublikamizdagi iktisodiy saioxiyagdai yan ada kengroq foydalanish imkoniyatlari ko‘proq oshirish , O‘ZBEKISTON uchun inqirozni bartaraf etish va jag‘on (i)yurida ish n marralarga chiqishning ishonchli yo‘li sifatida 2009 ynlga mo‘ljallaigam IQTISODiy dasturning quyidagi eng muhim ustuvor yo‘malishlari bslgilab berilgan:

mamlakagimtda qobul qilingan2009-2012 yillarda JAHON iqtisodiy inqiroz oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo‘yicha qarshi dasturni amalga oshirish, shu asosda IQTISODiy o‘shishning barqoror sur‘atlarini va iktisodiyotning munosabatlarnui rivojlanishini ta‘minlash;

tarkibpy o‘zgartirishlarni davom ettirish va IQTISODiyotni dinersifikatsiyalash, buni birinchi navbatda, xalharo sifat sgandarglarsha javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiharishga yo‘naltirilgan maqsod muhim tarmokdarini modernizatsiya qilish, texnik va tsxmologik jihatdan qayta jihozlash yo‘li bilan amalga oshirish;

qishloqturmushi sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, kshnlok joylarda ijtimoiy va ishlab chiharish infratuzilmasini jadal rivojlatirish1a, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o`rni va ahamiyatini tubdan qayta ko`rib chiqishga, fermer xujaligini rivojlantirishni har tomonlama qo`llab-quvvatlashga yo`nal girilgap u yu? muddatli, o`zaro chuqur bog`langan chora-tadbirlar keng ko`lamda amalga oshirish;

mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshmrishiish ni muxmm omili sifatida ishlab chiharish va ijtimoiy sifrai> iiiiMiiiiii yanadl rivojlantirish;

6) banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo`jalik yurituvchi sub'ektlarning bo`sh mablag`larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag`batlantirish.

Prezidentimizning ushbu asarlarida belgilab berilgan O`zbekistan iktisodiyotini barkaror va mutanosib rivojlantirish, JAHONbozorlarida musta?kam o`rin egallash, shular asosida izchil IQTISODiy o`shishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to`liq va samarali amalga oshirish eng avvalo jamiyatimiz a'zolari tomonidan ularning mazmun-mhiyatiini teran va chuqur anglab etilishini taqozo etadi. Shunga ko`ra, O`zbekistan Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligining tavsiyasiga ko`ra Prezidentimiz I.Karimovning «JAHONmoliyaviy-IQTISODiy INQIROZ, Uzbekistan sharoitida uni bartaraf etishning YO`LLari va choralari» nomli asarlarini talabalar tomonidan chuqur va har tomonlama o`rganish, unda ko`rsatib o`tilgan dolzarb

masalalarning tub mhiyatiini anglash, 2009 yilga mo`ljallangan IQTISODiy dasturning engmuhim yo`nalishlarini bilish maqsadida mazkur maxsus kursning joriy etilganligimuhim ahamiyat kasb etadi.

1.1.MAKTABDA BADIY BEZAK ISHLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yirindisini o`zlashtirish bilan cheklanib bo`lmaydi. Shuning uchun o`quvchilarga o`z bilimlarini mustaqil ravishda tuldirib va boyitib borishni, o`zining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga k.aratishni urgatish kerak. Bu vazifa ukuvchilarning badiiy bezash ishlarini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan o`zviy bog`liq xolda kengaitirish va rivojlantirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, dekorativ san'atning ko`p turlari mehnat bilan omuxta bo`lib ketadi va shuning uchun ishga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi, ularni ma'naviy jixatdan boyitadi.

Dekorativ san'at sohasidagi ijod hozirgi zamon xayotining turli sohalarini, har xil voqealarni tematik jixatdan tula k,amrab olishi mumkin va lozim, Mamlakatining tashqi va ichki siyosatini, xalqning mexnatdagi yutuqlarini, mamlakatning tarixiy o`tmishini, ilmiy, badiiy oqibatidagi yangiliklarni, tabiatni va boihalarni ifodalashi kerak. Maktabda-gi har bir mashrulot yoki pioner drujinasidagi, komsomol tashkiloti hayotidagi har bir voqea dekorativ ijod uchun movzu bulishi, badiiy bezash vositalari yor-damida york.in shaklga kirishi va o`z navbatida fanta-ziyani o`stirishi mumkin. Vaxolanki, V. A. Suxomlinskiy uqtirganidek, «bolalik davridagi fikrlash, tafakkur jarayonlari tevarak dunyodagi jonli, yorqin, yorqi qo`yiladigan narsalar bilan iloji boricha chambarchas bogliq bulishi kerak. Idrokning emotsional turdagi

bolalarni ijodiyotga boshlovchi omildir»1.O`quvchi kunning ancha qismini maktabda o`tkazadi..Maktabdagi butun muhit uni go`zallik ko`nikmalari asosida yashashga, hayotdagi rang-barang holatlarni ko`ra bilishga o`rgatishi kerak.

O`quvchi maktab binosiga, uning yonidagi uchastkaga o`yin hamda sport maydonchalariga qarab, ulardagi go`zallikni his etishi, umuman maktabning qiyofasi undan o`zi bilim oladigan muhit haqida ijobiy tasavvur hosil qilishi lozim. Bunda puxta o`ylab chiroyli qilib bezatilgan va alox;ida e'tibor bilan qarab turiladi-gan tabiat burchagi, did bilan ishlov berilgan yo`lakcha va gulzorlar, maktab hovlisiga kiraverishdagi memorial taxta, kosmosni zabt etish, mehnat, harbiy jasorat kabi temalardagi stendlar, maktab binosining joylashishi tasvirlangan sxema va hokazolar katta yordam beradi. Mana shularning hammasida mazkur maktabga xos badiiy bezash uslubi ko`zga yaqqol tashlanib turishi shart.

Dekorativ san'atning maktab buposini bezatishga xizmat qiladigan asosiy yunalishlari — o`quv xonalarini, sport va majlislar zallaripi, koridorlarni bezash, ko`rgazmalar tashkil etish, maktab teatri uchun dekoratsiyalar ishlash, dekorativ-amaliy san'at buyumlari yasash, plakatlar chizish, turli axborot vositalarini tayyorlash va xokazolardan iboratdir.

Maktabga kiraverishda unga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, dare jadvali, ukuvchilarning ijodiy ishlaridan namunalar ko`zga tashlanib turishi kerak. Imkoni bo`lsa, mehnatda ibrat kursatgan ota-onalarning rasmlari k.uyilgan stend

tayyorlash ham maqsadga muvofiq.

Maktab binosining har qaysi qavatini quyi, o`rta va yuqori sinflardagi o`quvchilarning yoshlariga mos qilib bezash maqul. Bunda oktyabryatlar, pionerlar va komsomollarning jamoatchilik faoliyatiga xos xususiyatlarini hamnazarda tutish zarur.

Birinchi qavatdagi koridor va zallarga quyi sinf o`quvchilari uchun ibratli maqillardan stendlar joylashtiriladi. O`quvchilarning «Ertaklar mamlakati bo`ylab» shiori ostida utkazilgan sayohatida olingan fotosuratlar ko`rgazmasi juda harakterli bo`lib, bolalarni ko`p narsalardan xabardor qiladi. Qator stendlarda qahramon, Batan ravnaqi uchun kurash va hokazolar haqida hikoya qilinadi. Koridorning ko`cha tarafidagi katta deraza tagida tabiat burchagi - mehr bilan ustirilgan xonaki o`simliklar, o`ziga xos shakl va rangdagi toshlar bo`ladi .

Boshlangich sinflar joylashgan qavatga kiraverishda devoriy gazrta chiqariladi. Bu qavatdagi stendlarda bolalar onalari, buvilari hamda vojatiylari uchun tabriknomalar, taklifnomalar, yuqori sinf o`quvchilar yordamida instsenirovka tayyorlayotgani, qo`lbola ijod namunalaridan iborat ko`rgazmalar, zal dekoratsiyasini tayyorlayotgani o`z ifodasini topadi.

Quyi sinf o`quvchilari «Har doim bo`lsim quyosh!» shiori ostida rasmlar konkursini o`tkazadilar. Rasmlarni asfaltga yoki tomosha zalining poliga tushalgan linoleum ustiga yoki oyoqda o`rnatilgan sinf doskasiga chiziladi. Bu yoshdagi bolalar «Nega shunday?», «Cheburashka», «Topa qoling!» kabi ko`poq oyinlarni yoq.tiradilar.

Yuqori sinf o`quvchilari bilan birga quyi sinf o`quvchilariga goyaviy tarbiyalashda tayyorlanish muhim ro`l o`ynaydi. Bunda rang-barang illyustratsiya materiallari - fotosuratlar, rasmlar, diapozitivlar va hokazolardan foydalaniladi.

Quyi sinflarini bayramona bezashda maktabdagi tasviriy san'at uqituvchisidan boshqa kishilar ham qatnashishi, tasviriy san'at o`qituvchisiga ota-onalar, otaliq tashkilotining vakillari, yuqori sinf o`quvchilari katta yordam berishlari mumkin. Maktab o`rta sinif oqibatiga bag`ishlangan pannoda vatanparvarlik, miklliy g`oya aks ettiriladi.

IV—VII sinflarda manaviyat kunlariga tayyorgarlik ishlari mazmunan va shaklan rang-barang bo`ladi. Ularda lineykalar, mitinglar, sinf majlislari o`tkaziladi.

Yuqori sinf o`quvchilari "Kamolat yoshlar ijtimioiy harakati" burchagi (zal, mo`zey) tashkil qilishda ishtirok etadilar. Bunipg uchuy muzeylarga hotra bog`lariga ekskursiyalar o`tkaziladi. Bu tadbirlar turli ekspozitsiya, albom, yubiley gazetalari uchun qiziqarli materiallar yigishda yordam beradi. Maktabda olimpiadalar, kechalar, matbuot konferentsiyalari, qo`shiqlar konkursleri o`tkaziladi. Bularni bezashda o`ziga xos badiiy usul va yangiliklar topish lozim.

Har bir sinfda tematik hamda siyosiy axborotlarni sharxlovchi yigilishlar, ijtimoiy-siyosiy, qahramonlik, vatanparvarlik mavzularidagi asarlarning konkursleri o`tkazilishi, og`zaki jurnallar to`zilishi mumkin. O`quvchlarning «Yashayber, kitob!», «Yurtimizning yashil libosi», «Bizning dalada» kabi ommaviy

harakatlari o`quvchilar hayotidagi salmoqli voqealardir. Mana shu tadbirlarda vujudga keladigan vaziyat o`gil va qizlarning estetik tarbiyasida muhim rol o`ynaydi.

O`quvchilarnig xilma-xil marosimlarini o`tkazishda ularga qushiladigan bezak elementlari katta ahamiyat kasb etadi.

Guruxlarda ma'lum marosimlar sistemasi shakllangan. Ulardan eng mashhurlari- o`quvchlarni vatanparvarlik va milliy g`oya ruhida tarbiyalashga bagishlangan marosimlardir. Bularga,, «Kizil bayrokda ex,trom», «Qohramonlarni yodlash» va hokazolar kiradi. Bular mashhur sanalarga bagishlab o`tkaziladigan yig`ilishlar, lineykalari, mitinglarining asosiy k.ismini tashkil etadi. Bu sanalar: Hotira va qadirlashkuni (9 May), 8 mart — Xotin-qizlar kuni va boshalardir. Marosimlarni bezash uning goyasiga aynan muvofits, jiddiy, tasirchan bulishi lozim. Masalan, «Qramonlarni yodlash», marosimiiipg mazmuni xotira belgisi — gullar yoki shuhrat gulchambarlari qo`yish hokazolardan iboratdir. Marosimning bu elementlari vaqt kompozitsiyasida marosimning xarakteriga, butun harakatning yaxlitligi talabiga hamda tevarak-atrofdagi vaziyatga moe tushmog`i lozim, Bu ularda fahr va vatanparvarlik nishonlaridan foydalanishning axamiyati kattadir.

Yuqori sinflarningning faoliyatida ijtimoiy ish shakllaridan ko`plari, xususan, madaniy-ommaviy tadbirlar saqlanib qoladi. Shular bilan birga uning o`ziga xos yangi ishlar: kamolat yoshlash ijtimoiy harakati, «konustitutsiya bosh qanusimiz» mavzusida sinovlar o`tkaziladi. Yuqori sinf o`quvchilarining badiiy ijod sox.asydagi ish doirasi kengayib boradi. Ular maktab uchuy

naqqoshlik, ganch va yogoch uymakorligi, mozayka, misgarlik va hokazolar buyicha har xil ishlarni bajarib dekorativ-amaliy san'atning qirralari va murakkabroq turlarini o`zlashtirib boradilar. Turli bayramlarga doyr munozaralar, adabiy kechalar, umummaktab bayramlarini o`tkazish, kurgazmalarni tayyorlash, devoriy gazetalar chiqarish va badiiy bezash ishlarini amalga oshirish yuqori sinf o`quvchilaridan o`tkir didlilik, ixtirochilik va bilimdonlikni talab qiladi.

Maktabda badiiy bezash ishlarini tobora takomillashtirib borish estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo`lib, o`quvchilarning rassom-pedagog rahbarligida maktab muhitini qayta qurishni kengaytirishda ijodiy aktivlik ko`rsatishlari yanada muhimdir.

2.2. Amaliy bezak san`ati va uning uziga xos xususiyatlari.

Amaliy - badiiy bezak san'ati - san'atning teatr, kino, musiqa, gasviriyl san'at turlari qatori mustaqil ahamiyat kasb etadi. U o`z nomiga so`ra amaliyotda, yani turmushda qo`llaniladigan bezak san'ati ma'nosini yutlatadi. Amaliy- badiiy bezak san'ati turli xil buyumlar, ko`chalar, qaydonlar, istirohat bog`lari, ishlabchiharish korxonalarlari, o`quv-tarbiyaviy muassasalar, sport va madaniy inshootlarni bezatish bilay bog`likdir. Shuningdek, u kiyim-kechaklar, zargarlik buyumlari bezagini ham o`z ichiga oladi. Amaliy-bezak san'ati kishilar turmushida shunchalik keng go`laniladiki, usiz turmushni tasavvur etish qiyin.

Amaliy-badiny bezak san'ati idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, mebel, inter'er, ekster'er bezagi, gazmollar bezagi va boshqa turli buyimlarda qo`llanadi. Amaliy-bezak san'ati nihoyatda qadimiy

bo`lib, u shshilarning mehnat faoliyatlari va eg`giyojlari bilan bog`lik holda paydo Buyagan, san'atning bu turining dastlabki namunalari tosh asrida paydo bo`lgan deb taxmin qilinadi. Uyg`onish davrigacha u uy hunari shaklida, keyin xalq badiiy hunarmandchiligi tariqasida shakllandi. Shaharlarda amaliy-bezak buyumlari maxsus korxonalarda ishlab chiqiladigan bo`ldi. Asta-sekin xalq hunarmandchiligi buyumlari orasida yuksak badiiy saviyada ishlanganlari ham paydo bo`ldi. Natijada, ular amaliy san'at namunalariga aylandilar. Turmushda foydalanish uchun tayyorlanadigan buyumlarning barchasi amaliy san'atga kiradi deb bo`lmaydi. Turmush uchun muljallangan kiyim-kechak, idish-tovoq amaliy san'at buyumiga aylanishi uchun ularga ma'lum talablar qo`yildi. Yash, ular yuksak badiiy saviyada bajarilishi lozim. Bunda ularning tuzilishi, shakli, bezak kompozitsiyasi, ranglari, materialo` nazarda tutilada. Bu talablarga javob bermagan tmushrda, ular hunarmandchilk buyumi qatorndan o`rin oladi. Shuningdek, pjuv mashinalari yordamida tayyorlaiadigan buyumlar xalq amaliy san'at namunalari bo`la olmaydi. Chunki, ular yuqoriyagi talablarga tula javob berolmaydi.

Jahondagi har bir xashrtng o`ziga xos amaliy-bezak san'ati bor. Masalan, Xitoyda chinnisozlik, Rossiyada matreshka o`yinchoqlar yasash. Turkmanistonda gilamchilik, Boltnq bo`yi mamlakatlarida dasturxon va sochiqlar tikish, O`zbekistonda esa kulolchilik, misgarlik, chinnisozlik, kashtachilik taraqqiy etdi. Shunisi divdatga sazovorki, amaliy-bezak san'atida har bir buyumni tayyorlashda har bir xalq o`z materiali, o`z texnologiyasi,

ish uslublari, bezak gullari va ranglarini qo'llaydi.

Amaliy-bezak san'atining asosiy maqsadi kishilar yashaydigan mug'itni va o'zini o'rab olgan buyumlarni chiroyli qilishdan iborat. San'atning bu turida go'zallik va qo'llanish (foydalilik) birligi degan ibora bor. U buyumlarni faqat turmushda qo'llanilgandagina guzal bo'lishi mumkinligini bildiradi. hatto, ayrim buyumlar bezaksiz bo'lganda ham go'zal va badiiy bo'lishi mumkin. Bunda bu buyumning shakli va materiali katta ahamiyat kasb etadi. O'zingiz tasavvur etib ko'ring, biron bir usta nihoyatda ajoyib bir shakddagi, tuzilishdagi, rangdagi, bezakdagi buyumni yaratgan. U har jihatdan kishilar e'tiborini o'ziga tortdi. Lekin, undan amaliyotda foydalanib bulmasa, u narsani go'zalligi g'sh bo'lmaydi. Masalan, piyolani chelakdek kattalikda nihoyatda bezakdor qilib ishlansa, undan hech kim foydalana olmaydi. Ya'ni, u chiroyli bo'lishi mumkin emas. Amaliy-bezak san'atida shakl muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda buyum har jihatdan maqsadga muvofi? ishlansa-yu, uni shakli topilmasa u ham chiroyli yoki badiiy hisoblanmaydi. Masalan, palov uchun muljallangan sopol laganni to'ora yoki chelak shaklinda ishlash mumkin emas. Chunki, u laganni vazifasiga moe tushmaydi. Palovni tog'oradan qo'l bilan olib eyish ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiharadi. Shuning uchun ham amaliy-bezak san'ati buyumini yaratishda buyum shaklini, uning vazifasidan kelib chiqqan holda tayyorlanishi lozim.

Amaliy-bezak san'ati buyumlarini tayyorlashda uni materialni to'g'ri tanlash katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, lagan va

piyolani yog`ochdan, xontaxta va kureilarni toshdan, kiyim-kechaklarini loy yoki ganchdan tayyorlash maqsadga muvofiq emas. Chunki, bu materiallar shu buyumlarning vazifasiga mos kelmaydi. Aytaylik, idish-tovoqlar tayyorlashda usta, unga oziq-ovqat yoki ichimlik solinishini hisobga olishi lozim. Usta lagan tayyorlaydigan bo`lsa, uni metaldan ekin toshdan tayyorlamaydi. Chunki, lagan metaldan tayyorlansa birinchidan o`qir bo`ladi, ikkinchidan unga suzilgan ovqat tez sovub qoladi. Uni yuvish va tozalash ham ma'lum qiyinchiliklarga ega. Amaliy san'atda ustalar yasaladigan buyumning vazifasiga qarab, mavjud barcha materiallardan foydalanadilar. Ular tuproq, tosh, suyak, yochoch, gazmol, ganch, metaya va boshtsalar. So`ngta vatstlarda sintetik materiallar ham keng qo`llanilmoqda.

Amaliy-bezak san'atini rangsiz tasavvur etish qiyin. Ayrim ustalar buyum materialiga (masalan, yog`ochga) ishlov berib, ularning ta'sir kuchini oshirsalar, boshqa ustalar buyrtar yordamida buyumlarga rang berib ularning ko`rkini ochadilar. Amaliy-bezak san'ati buyumlariga rang berishda ustalar yuqorida qayd qilinganidek, ularning vazifasidan, ishlatilgan materiallaridan kelib chiqadilar. Shuningdek, buyumlar qaysi maqsadda kimlar uchun, qaysi vaqtda, qaerda ishlatilishiga qarab rang tanlaydilar. Masalan, kiyimlar uchun rang tanlanganda, ular qaysi jinedagilar, qaysi yoshdapshar, qaysi vaqtda kiyilishi (bayram, to`y kunlari, motam kunlari, xizmat vaqtida v.b.) ga e'tibor beriladi. Masalan, bayram va to`ylarda kiyiladigan kiyimlarda quvnoq va jarangdor ranglar ishlatilsa, kundalik kiyimlarda vazminlik, xotirjamlik

hislarini o`yg`otuvchi ranglar qo`llaniladi. Kasalxona inter'erini bezashda qo`llanilgan ranglardan o`quv yurtlari yoki o`quv muassasalarini bezashda foydalanib bo`lmaydi. Chunki, ranglar odamlarga turlicha ta'sir ko`rsatadilar. Shu maqsadda kasalxonalarning bezagida ko`proq kasallarni tinchlantiruvchi, engil, tiniq ranglar ishlatilsa, o`quv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalarida kishilarni hayajonlantiruvchi, tetiklashtiruvchi, jonlantiruvchi ranglar qo`llaniladi. Bayram kunlari kiyimlarni tayyorlashda ularga iliq ranglarni berilishining sababi kiyimlarni ko`rgan odamlarda ko`taringilik, quvanch hosil qilish nazarda tutiladi. Kundalik kiyimlarda bunday ranglar ishlatilsa, ular odamlarni tez marchatadi va bezovtalantiradi. Xullas, ranglar shunday kuchga egaki, hatoki qamoqxona devorlari yorqin, engil iliq ranglar bilan bo`yalgan taqdirda u kishilarda qamoqxona emas, madaniyat muassasasining binosiga kirilgandek tasurot qoldiradi.

Amaliy - bezak san'ati buyumlarida yana bir muhim jihatlarning o`lchovlari hisoblanadi. Bu degan so`z amaliy-bezak san'ati Puyumini yaratuvchi har bir usta yaratilajak buyumning vazifasini e'tiborga olib, uning o`lchovini to`g`ri olishligini bildiradi. Xususan, choynakni xumdek kattalikda, so`zanani dastro`moldek yoki ayollar taqnoqlari solinadigan qutichani sandiedek o`lchovda yasash mumkin emas. Aks xolda, ular foydalanish uchun yaroqsiz bo`lib qoladi.

Shunday qilib, amaliy san'at buyumlari ularning vazifasi, shakli, bezagi, materiali, rangi, o`lchovlariga rioya qilishni talab etadi.

Shundagina, bu buyumlar kishilarni hayajonlantiradi, to'liqlantiradi va ularga zavq bag'ishlaydi.

Hozirda amaliy-bezak san'ati ikki yo'nalishda rivojlanmoqda:

1. Badiiy hunarmandchilik. Bu yo'nalishga ayrim korxonalar, zavodlar, fabrikalar kiradi, Buxorodagi zardo'zlik buyumlari, Xivadagi gilamdo'zlik, Rishtondagi sopolsozlik korxonalari shular jumlasidandir.

2. Xalq amaliy-bezak san'ati. Bu yo'nalishda asosan mustaqil ravishda ish olib borayotgan ustalar mahsulot ishlab chiqaradilar. Birinchi yo'nalish bo'yicha badiiy buyumlar ishlab chiqarish korxonalarida ko'p nusxada tayyorlansa, alohida ustalar faoliyatida buyumlar soni niqoyatda chegaralangan bo'ladi. Bu esa ularning badiiyligini yuqori bo'lishligiga olib keladi. Bunday korxonalar mebelsozlik, pichoqchilik, kashtachilik sohalarida ish bor.

Xalq amaliy san'ati har bir xalqda mavjud bo'lib, ular bir-birlaridan yuqorida qayd qilinganidek, amaliy san'atning janrlari, buyumlar tayyorlashda qo'llanadigan materiali, shakli, tuzilishi, rangi, bezagi, o'lchovlari jihatidan bir-birdaridan farq qiladi.

Xalq amaliy san'atining yana bir muhim xarakterli belgilaridan biri bu ming yillar davomida xalq ustalari ijodida qo'llanib kelingan badiiy an'analar hisoblanadi. Bu xususiyat ko'proq har bir xalqning u ishlayotgan muxit, tabiati, iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Chunki, amaliy san'at ustasi o'z asarini yaratayotganda u go'zallikni tevarak-atrofdan, tabiatdan oladi. Masalan, o'zbek xalq ustalari o'z ishlarida toychoq, qo'zichoq, tovus tasvirlarini,

himoliy o`lkalarning ustalari bugu, kiyik tasvirlarini ishlaydilar. Asar materialiga esa o`zbek ustalari ganch, loy, mis kabilarni, shimoliy xalqlar yog`och va hayvon suyaklarini ko`proq ishlatadilar. Yuqorida qayd qilganimizdek, asar koloritiga iqlim ishga ta'sir ko`rsatadi, Shimoliy o`lkalar iqlimi sovuq bo`lgani uchun u erdagi ustalar ko`proq sovuq ranglarni, issiq iqlimli O`zbekiston ustalari ko`proq iliq ranglarni qo`llaydilar. Shunday qilib, har bir xalqning amaliy-bezak san'atida o`z an'analari shakllanadi.

O`zbek kashtachiligida duppi alohida o`rin egalaydi. Shaxrisabzning gilam do`ppisi, Buxoroning zar do`ppisi, Namanganning chuet, iroqi, duxoba va boshqa do`ppilari O`rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Do`ppi nusxalari ichida eng mashg`uri chuet do`ppilaridir. qora atlas yoki satin ustiga ipak bilan tikilgan bodom gul (yoki qalampir), kizakka tushirilgan gullar do`ppiga nafislik baxsh etadi. 1- rasm.

Kashtachilik san'atida belboq, dastro`mol, sandalpech, bo`g`macha va turli to`rvachalar ham nafis bezatiladi.

O`zbek kashtachiligining an'analari hqozirgi kunda ham muvaffaqiyat bilan rivojlanmoqda.

Nimshohi gazlamadar-beqasam, banoras va adras, atlaslar ham xalqimiz tomonidan e'zozlanadi. O`zbek xalqi ipak etishtirishda mohir bo`libgina qolmay, balki atlaslar to`g`igan, ularni nihoyatda yuqori badiiy did bilan bo`yay olgan. Ipakdan to`qilgan to`rt, sakkiz, o`n ikki tepkili atlaslar jahonda dong taratgan. Atlaslar kompozitsion jihatdan turli- tumandir. Hozirgi kunda uning yuzdan ortiq bezak turi bor. Bular, asosan, turli

geometrik shakllar, o`simliklarning gul va mevalari, barglari, uy-ro`zg`or asboblari va hokazolardan iborat.

Ganchkorlik O`zbekistonda amaliy san'atning eng sevimli va qadimiy turlaridan biridir. Amaliy san'atning bu turida Buxorolik va Toshkentlik ustalar samarali mehnat qilmoralar.

Avvallari davorlar o`yma gulli pannolar bilan bezatilar, taxmonlar qirrasiga naqshlar o`yilardi. Tokchalar bo`lsa o`ymakor yoki jim-jimador bezaklar bilan yasatilar, xonaga nur va havo kirib turishi uchun deraza va eshik ustidan tuynuk qilib ,unga ganch va yog`ochdan panjara o`rnatilar edi. qozirda qandil, navo, ship kabi me'morchilik detallari ganchdan tayyorlanmoqda. Shuningdek, madaniyat saroylari va ma'muriy binolarning ichki va tashqi qismini bezatishda ganchkorlikdan keng foydalanilmoqda. 2-rasm.

O`zbek ganchkorligining ajoyib qiyofasini Buxoro yaqinidagi Sitorai Mohi Xosadagi moq uy" da, Toshkentdagi Navoiy nomli katta opera va balet teatrida ko`rish mumkin. San'atning bu ajoyib va murakkab turida ustalardan Usta Shirin Murodov (Buxoro),Toshpo`lat Arslonquloz, A. Po`latov, A. Samadov, M.Usmonov (Toshkent), B. Jalilovlar(Samarqand) dong taratganlar.

Yog`och o`ymakorligi san'atida musiqa asboblari bezash ham asosiy o`rin egallaydi. Dutor va tanburga, chang va torlarga suyak va toshlardan qadalgan chiroyli naqshlar kishini hayratda qoldiradi. Bu ishlar xozirgi vaqtda Toshkentda keng rivojlanmoqda.

O`ymakorlik san'atining ajoyib turlaridan biri migarlikdir. O`zbek misgarlik san'ati juda qadimdan shuhrat qozonib kelingan unda sariq va qizil misdan ishlangan turli xil xo`jalik va uy-ro`zg`or buyumlari nozik shakllar bilan bezatiladi. 3-rasm.

Bezatilgan mis asboblari Buxoro, Qo`qon, Samarkand, harshi va boshqa shaharlarida ko`proq yasaladi. Misgarlikda bu shaharlar ustalarining ananalari xos ishlah uslubi bor, Lagan, patnis, choyidish, oftoba va obdastalar mta arlik buyumlari ichida eng ko`p tarqalganlari hisoblanadi. 4-rasm.

Amaliy san'atning bu turida buxorolik M.Muhsinov, S.Podchaev, M.Solixov, S.Hamidov, L.Fozilov, xorazmlik X.Saidov, M.Jonbekov, S.Xudoyberdiyev, Toshkentlik R. Soibovlar samarali mehnat qiladilar.

Qadimdan uy-ro`zg`or buyumlariga bo`yoqlar bilan ajoyib naqshlar qilianib kelingan. Uni naqqoshliklik san'ati deb yuritiladi. Respublikamizda amaliy san'atning bu turi qadimdan rivojlangan bo`lib, vuda o`zbek ustalari faqat uy-ro`zg`or buyumlarini emas, balki uy-joy va jamoat binolarining devor va shiplarini bezaydilar. San'atning bu urida xar bir xalq o`zicha ijod qiladi. Masalan, rus amaliy san'atida kelsak yog`och yuzasiga usta o`simliksimon naqsh rasmini tushiradi, unga maxsus iusklar beradi. U biroz qurigandan so`ng bo`yog`i o`chilib ketmasligi uchun kamida bir necha bor tiniq lak surtiladi. O`zbek ustalarining ish uslubi boshqacharoqdir. Bu ustalar eskiz bo`yicha duradgor ishlagan yog`ochga elimyadilar, uning usti jilvir qag`oz bilan

ishqalangandan so`ng, materialga bronza beriladi. Keyin bronza ustidan ulgi asosida kompozitsion tasvir, mtig ustiga qora bo`yoq surtib, so`ngra naqsh ishlanadi. Naqshlarning o`chib ketmasligi uchun naqsh ustidan bir necha bor toza lak surtiladi. 5-rasm.

Xalq ustalari tajribasida naqshning quyidagi turlari ko`proq qo`llaniladi: islimi - egri chiziqli o`simlik elementlardan iborat naqsh; I grih to`g`ri chizish naqshsh elementlardan geometrik shakl hosil qiluvchi naqsh; I u 2 girih (yoki murakkab) - bu ikki guruxdagi naqsh islimi va girih shsmentlaridan tashkil topadi. Islimi turdagi asosiy elementlar - novda, inroh, gul, g`uncha, kurtak, qalampir, meva, poya kabilar hisoblanadi. Poya va ionda turli naqshlarning eng ko`p uchraydigan elementlari hisoblanib, ular naqsh chizishda qo`llaniladi. Girihlar esa to`rsimon va yulduzsimok pulib, yulduz nurlarining soni 5 tadan 16 tagacha boradi. 6-rasm.

Naslshing uchinchi turi hisoblangan gulli girih naqshida esa naqsh geometrik va o`simlik elementlarning bir-biriga qo`shib ishlatilishi

II. Maktabda badiy bezak ishlarida naqshdan foydalanish mavzusining tahliliy qismi.

2.1. Dekorativ-amaliy san'atning maktab badiiy bezash ishlaridagi roli

Dekorativ-amaliy san'at - keng miqyosda rivojlanayotgan san'atimizning xalqamaliy ijodi turlaridan biridir. Unda kishining haqiqiysan'atga estetik munosabati yaqqolnamoyon bo`ladi. Xalq amaliy san'atining bu turi haykaltaroshlik, rangtasvir, arxitektura,

raqs va muzika bilan ham ohangdir.

Dekorativ san'atning o'ziga xos estetik jihatlarini tushunish uchun uning mavzui, mazmuni, asardagi tiplar, badiiy texnika vositalari diapazonining odat-dan tashhari katta mahiyasini nazarda tutib qarash kerak. Bu badiiy bezak o'ymakorligi — monumental, stanokli, predmetli — miliy libos va turli xalqlarning milliy kiyimlari, so'zanalar, taqinchoqlar va istirohat bog'lari san'ati, devorlardagi monumental dekorativ rasmlar, vitrina, devoriy gazeta, tabriknomalarning bezaklari ham da mebel buyumlaridagi o'ymakorlik va hakazolardir. Shakllari bir-biriga o'xshamagan bu asarlarning o'zaro biriktirib turgan jihati ularning asosiy vazifasi, asosiy funksiyasi — insonni qurshab turgan muhitni nafosat vositasida bezashdan iboratligidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, dekorativ san'at turli-tuman bo'lsa ham , ularning ko'pchiligi amaliy-foydali ob'ektlarga: liboslar, mebel, o'yinchoqlar, vitrinalar, binolar va hakazolarga badiiy ishlov berish jihat bilan o'zaro bog'lanadi. Mana shu ma'noda dekorativ-amaliy san'at deyiladi. Biroq dekorativ san'atga, yuqorida aytganimizdek, amaliy jihatdan bevosita foydasi sezilmaydigan asarlar ham o'shiladi. Masalan, zargarlik buyumlari, turli taqinchoqlar, o'ymakorlik buyumlari va boshqalar. Bularning ham masi rassomlik yoki haykaltaroshlikdan farqli o'laro' kundalik konkret muhitda, o'zlarining xususiyatlariga ko'ra konkret holatda foydalanilsagina estetik ma'no kasb etadi.

Inson yashayotgan va harakat qilayotgan muhitning nafosat boyligi ana shu muhitga olib kirilgan zeb-ziynat buyumlarining

soni bilangina belgilanmaydi. Muhimi shundaki, bu zeb-ziynat elementlari mazkur muhitning hayotiy sharoitiga moslashib, uning ijti-moiy mazmuniga, odamlarning amaliy va ma'naviy ehtiyojlari vujudga keltirgan talablarga nechog`lik javob berishiga qarab ham bag`olanadi. Nafosat elementlari muhitni shunchaki bezabgina qolmasdan, balki uning badiiy obrazli mazmunini kuchaytirib, oshirib, rivojlantirib ham ko`rsatadi. Dekorativ san'at mana shu vazifasini san'atning boshqa turlari — arxitektura, rassomlik, haykaltaroshlik bilan birgalikda bajarsa, uning qimmatini yanada ortadi.

Dekorativ san'at asarlarining diqqatga sazovor xususiyati ularning o`z vositalari bilan ma'lum davr doirasida sharoitning badiiy obrazli mazmunini dinamik tarzda o`zgartira olishidir. Dekorativ san'atning shu xususiyatiga binolar, ko`chalarning bayramona bezatilishi misol bo`ladi. Bu bezatishlar o`sha joylarning odatdagi qiyofasini ma'lum vaqtgacha o`zgartirib turadi. Dekorativ san'atning barcha turlariga oid asarlar, shu jumladan, ularga yaqin turuvchi grafik san'at asarlari ham ma'lum darajada mana shunday rolni bajarishi mumkin. Masalan, bayramona tabriklar yoki tasvir tushirilgan vimpellar bunga misol bo`la oladi.

har bir tarixiy davr alohida hoyaviy va axloqiy tasavvurlarni olg`a surib, kishilar ijtimoiy hayotining alohida ideallarini ifodalay ekan, takrorlanmas dekorativ san'atni vujudga keltirgan. Dekorativ san'at asarlarida inson, jamiyat va o`z davrining xarakterli hissiyotlari to`qirida mavjud hoyotiy ham da axloqiy tasavvurlarni ifodalash san'atning rostgo`ylik yoki ta'sirchanligining asosiy

shartidir. Mana shu printsipga amal qilinmasa, badiiy maqsadni hamda shaklni hal qilishda yasamachilik, asarda emotsional qiyofa bo'lmashligi, formalizm vujudga keladi.

Biroq dekorativ san'atning ta'sirli chiqishi uchun davrni tasvirlashdagi realizm uning birdan-bir sharti emas. Dekorativ san'at asarlaridagi ko'p jihatlar boshqa asosiy shartlarga ham bog'liq. Shaklni ifodalashda ishlatilayotgan materiallarning, ko'p hollarda esa usullarning o'ziga xos jihatlarini (o'ymakorlik, to'qimachilik buyumlari va boshqalar), o'ziga xos tomonlarini yaqqol ifodalashni talab etadi. Dekorativ san'atda umuman materiallar, ulardagi xususiy jihlarning go'zallik sifatlari ayniqsa muhim, ba'zan esa yetakchi o'rin tutadi. Bu holat dekorativ asarlar shakllarining o'ziga xos shartli tomoni bo'lib, u asarlar mazmuni umumlashtirilganligi va mavhumligining natijasidir. Ularni ko'pincha so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Biroq materialning kurki dekorativ san'at asarlari mazmunidagi kamchilikni to'ldirish, uni «bo'yab ko'rsatish» kerak, degan so'z emas. Ijodiy vazifalarni bunday tushunilsa, har doim asarlarning kompozitsiya-sida formalizm, mazmunan qashshoqlik ro'y beradi.

Dekorativ san'atda qo'llanadigan materiallarning estetik jihatdan eng kerakli sifatlari — yorqinligi, rangi, fakturasi, hajmi, vazni yoki pishirilishi hisobga olinadi. Bular yaratilayotgan formalarni aniqlik darajasida, umumiy hajmining mutanosibligi va boshqalarda ko'rinadi. Materiallarning mana shu sifatlarini nazarda tutib, ularni to'g'ri tanlash asarning shakli va qiyofasini yaratayotganda bu sifatlardan to'g'ri foydalanish — mazkur asar

beradigan taassurotlarni (masalan, bayramona, sport, o`yin va badiiy tantanalar) ruhini to`g`riyoritishni ta'minlaydi.

Maktab intererini badiiy bezashda dekorativ-amaliy san'atning yog`och va ganch o`ymakorligi, naqqoshlik, dekorativ haykaltaroshlik, mozaika, vitraj, chekanka va boshqa turlaridan foydalaniladi. Badiiy bezash ishlarida dekorativ-amaliy san'atning ana shu turlarini qo`llashdan ko`zlanadigai maqsad — ta'lim va tarbiya maskani bo`lmish maktab iitersrishshg uziga xos xususiyatlarini to`laroq yoritishdan, o`quvchilarda bu an'atga qiziqish uyg`otishdan va dekorativ-amaliy san'at sirlarini o`quvchilar uchun yanada yaqinroq va tushunarliroq qilishdan iboratdir.

Afsuski, ba'zi maktablarning intererlarini badiiy bezashda hoyat jiddiy nuqsonlar va kamchiliklarga yo`l qo`yiladi. Dekorativ-amaliy san'atning sifatsiz va saviyasiz namunalari, tasviriy san'atning boshqa turlariga bevosita bog`lanmagan ayrim stendlar, devoriy gazetalar, chaqiriqlar, e'lon va portretlar maktab intererining ko`rinishini buzmoqda.

Maktabdagi badiiy bezash ishlarida dekorativ-amaliy san'at elementlarini qo`llashda asosan quyidagi-larni nazarda tutish shart:

qo`llaiayotgan dekorativ-amaliy san'at namunasi maktab intereri xarakteriga mos bo`lishi kerak;

sinf xonasiing vazifasini, unda shu?ullanadi-gan o`quvchilarning yosh xususiyatlari va idrok etish ko-biliyatlarini hisobga olib dekorativ-amaliy san'atga differentsial yondashish

lozim (masalan, kichik maktab yoshidagi o`quvchilar shug`ullanadigan rekreatsiyalarda tabiatga, o`rta yoshdagi o`quvchilar shug`ullanadigan rekreatsiyalarda pionerlarga, yuqorii sinf o`quvchilari shug`ullanadigan rekreatsiyalarda kosmosga, sportga, mehnatga bag`ishlangan dekorativ pannolar o`rnatilishi ularga ma'lum darajada ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir ko`rsatadi);

maktabdagi badiiy bezash ishlarida qo`llanayotgan dekorativ-amaliy san'at elementlari mavsumiy, ya'ni vaqti-vaqti bilan almashtirib turiladigan elementlar bilan mos bo`lishi zarur;

maktabdagi badiiy bezash ishlarida qo`llanayotgan dekorativ-amaliy san'at elementlari tasviriy san'atning boshqa turlari bilan uzviy bog`lanishi kerak (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika va arxitektura maktab intererini badiiy bezashda bir-biriga garmonik bog`lanmasa, hal qiluvchi omil bo`la olmaydi).

Yuqoriida ta'kidlanganidek, intererni badiiy bezashda bevosita uning vazifasidan kelib chiqqan holda ish ko`rish lozim.

Agar maktab muzeyi ko`rgazmasi va ekspozitsiyalari haqidaran ketadigan bo`lsa, eng avvalo, undagi fazo bo`shliqi saqlanishi, eksponatlarni tomosha qilish uchun qulaylik tdirilishi lozim. Yana shuni ta'kidlab o`tmoqchimizki, maktab badiiy bezash ishlarida dekorativ-amaliy san'at elementlarini qo`llash murakkab jarayon bo`lib, ko`r-ko`rona qo`llanadigan elementlar ko`ngildagidek natija bermaydi. Ular avvalo yuksak badiiylikka ega bo`lib, sinf xonalari va maktab intererlarintsng boshqa qismlarining vazifasiga, rang echimlariga, undagi jihozlar, mebellar va yoritilganlik darajasiga mos bo`lishi kerak.

Respublikamiz maktablarining intererlarini badiiy bezashda dekorativ-amaliy san'atning naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi kabi turlari uning boshqa turlariga nisbatan ko'proq qo'llanmoqda. Bu tabiiy holdir. Chunki dekorativ-amaliy san'atning xuddi shu turlari qadimdan e'zozlanib, juda ko'p binolarni bezashda qo'llab kelingan. Bunga Samarqanddagi Registon ansambli, Go'ri Amh) maqbarasi, Buxorodagi Minorai Kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi, Xivadagi Islom-xo'ja minorasi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi, Qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy binosi va boshqalar misol bo'la oladi.

Hozirgi paytda ham ma'muriy, turarjoy va boshqa binolarni badiiy bezashda amaliy san'atning yuqoriida aytilgan turlari keng qo'llanmoqda. Masalan, A. Navoiy nomidagi uzbek davlat akademik katta teatri, O'zbekiston tarix muzeyi, Toshkent davlat sirki binolari va hakazolar fikrimizning yaqqoldalilidir. Toshkent metrosining «yoshlik» stantsiyasida ganch o'ymakorligidan, «Kosmonavtlar prospekti»da dekorativ devoriy suratlardan, «Chilonzor» stantsiyasida sopol dekorativ figuralardan, «Paxtakor» stantsiyasida mozaikadan va «Alisher Navoiy» stantsiyasida dekorativ-amaliy san'atning bir necha turlaridan foydalanilgan. Bunday ishlarni respublikaning boshqa shaharlaridagi qator binolarda ham ko'rish mumkin (7,8-rasmlar).

Maktablarni badiiy bezashda dekorativ-amaliy san'at turlaridan naqqoshlik ko'proquchraydi. Naqqoshlik ishda etakchilik rolini o'ynovchi mustaqil vazifaga ega emas. U faqat

badiiy bezash ishlarining badiiy sifatini boyitadigan, bo`rttiradigan omil bo`lib xizmat qilishi lozim.

Maktab badiiy bezash ishlarida qo`llanadigan naqqoshlik san'ati ham ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda ishtirok etadigan elementlar tabiat ne'matlari (paxta, barg, gul, guncha, anor, bodom, nok, olma, lola, kurtak va hakazolar)ning stilizatsiyalashtirilgan formasidir.

Bir harashda dekorativ-amaliy san'atning alohida emasdek tuyulsada, o`zining amaliy ishda tutgan o`rni va badiiy xususiyatlari bilan bevosita dekorativ-amaliy san'at hisoblanadigan shunday zamonaviy turlari ham mavjudki, ularsiz maktab intererini tasavvur qilish qiyin. Misol uchun metallarga badiiy ishlov berish, payvandlash, bukish, chekanka qilish, qo`llash, bo`yash va loklash orqali ulardan maktab intererining turli burchaklarida turadigan gullarga taglik, eshik va derazalarga panjara, to`siq, yoritgich va boshqa bezaklar yasash mumkin.

Bundan tashhari, maktabdagi badiiy bezash ishlarida keramikadan ham keng foydalaniladi. Dekorativ laganlar, turli pannolar, releflar, gultuvaklar, vazalar va hakazolar eng avvalo o`quvchilarning estetik tarbiyasini takomillashtirishda katta yordam beradi.

2.2.Badiiy bezash ishlarida foydalaniladigan asbob-

uskunalar.

Badiiy bezash ishlarida foydalaniladigan asbob-uskuna va materiallar quyida badiiy bezash ishlarida foydalaniladigan asbob-uskunalar (ish qurollari) va materiallarning ayrimlari haqida to`xtalamiz.

Badiiy bezash ishlarida tasviriy san'atning ko`p turlari (jumladan, grafika) va chizmachilik mashg`ulotlarida keng foydalaniladigan «Konstruktor» halamlari ishlatiladi. Bu qalamlarning qattiq, yumshoqq-ligi va har xil turlari qo`llanadi.

Maktabdagi badiiy bezash ishlarining deyarli ko`p qismi— e'lonlar, devoriy, fotogazetalar va boshqalar qog`ozga ishlanadi. Badiiy bezash ishlarida qog`ozning B, Φ , A, O turlari qo`llanadi.

V — yuqorii sifatli qog`oz bo`lib, unga uzoq muddat saqlanadigan ishlar bajariladi (masalan, badiiy ko`rgazma ishlari),

Φ — tush va guash bilan ishlashga mo`ljallangan qog`oz,

A — srv bo`yoqlar bilan ishlashga mo`ljallapgan qog`oz

O — ommaviy ishlar uchun tayyorlangan qog`oz.

Bu qog`ozlar GOST 596—56 ga muvofiq ishlab chi-hariladi. Maktablarda e'lonlar, chaqmoqlar va hokazolarni yozishda maxsus papkaga solingan 12-formatdagi akvarel, chizmachilik va rasm chizishga mo`ljallangan qog`ozlardan ham foydalanish mumkin.

Badiiy bezash ishlarida o`chirg`chning ikki xili ishlatiladi. Yumshoqq o`chirg`chlar grafit qalam bilan chi-zilgan chiziqlarni, qattiq o`chirg`chlar esa tush hamda biyoq bilan yozilgan yoki chizilgan yozuv va chiziqlarni o`chirishga

mo`ljallangan.

qattiq o`chirg`ch maydalangan shisha kukuniga, yumshoq? o`chirg`ch esa maydalangan marmar kukuniga faktis suyuqligi aralashtirib tayyorlanadi.

To`g`rito`rtburchak shaklida ishlab chiharilayotgan turli o`lchamdagi (№1, №2) o`chirg`chlarni o`rtasidan (diagonali bo`yicha) qirqib ishlatish ancha qulay.

Uchirne`ichlar keraksiz chiziqlarni yaxshi o`chirishi, ya'ni yumshoq? bo`lishi uchun 1—2 sutka benzina yoki 3—4 sutka kerosinga solib qo`yish kerak. Ularning har ik-kisi ham topilmasa, moybo`yoqlarni eritish uchun ishlatiladigan № 2 suyultiruvchi eritmadan ham foydalanish mumkin. Uchirg`ichlar aytib o`tilgan muddatda shishib, yumshoq holatga keladi. Ularni yaxshilab artib 1—2 soat (undan benzin yoki kerosinning hidi ketguncha) suvda qaynatiladi. Bunday ishlov berilgan o`chirg`chlar yumshoq? bo`ladi va qalam chiziqlarini yaxshi o`chiradi. Ma'lum vaqt o`tgandan keyin o`chirg`ch yana biroz qattiq bo`lib holishi mumkin. Bunday hollarda yana xuddi shunday ishlov berilgan yangi o`chirg`ch olinadi.

Badiiy bezash ishlarida turli perolar ishlatiladi. Ularni eng ko`p ishlatiladigani plakat perosi bo`lib, u komplekt holda sotiladi. Bir komplektda № 1—8 pero mavjud bo`lib, ular chiziqlari turli yo`qonlikdagi harflarni yozish uchun imkon beradi. Ularni ishlatib bo`lgandan keyin albatta suvda chayib latta bilan artib qo`yish kerak. Ishlash jarayonida lezvie bilan ularning yori?chalari tozalab turiladi. Plakat perolar yumshoq metallardan tayyorlangan bo`lib,

ularni ishlatayotganda qattiq bosish yaramaydi. Aks holda ular tezda ishdan chiqadi.

Badiiy bezash ishlarida uncha katta bo'lmagan yozuv va tekstlarda, ayniqsa, kichik o'lchamli harflar bilan yoziladigan yozuvlarda «Redis» perolaridan foydalaniladi.

Bu perolar ham komplektlashtirilgan holda, qog'oz qutichada 0,7; 1; 1,5; 2; 2,5; 3-nomerlarda bo'ladi. Oqma holdagi kichik harflarni yozishda (ayniqsa, yozma harflarni yozishda) ham qutichaga komplektlashtirib solingan maxsus perolardan foydalanish mumkin. Bu perolar ham radis perosiga o'xshash tuzilishga ega. Faqat harf yozishga mo'ljallangan joyi yassi emas, balki qirrali bo'lib, bir tomonga biroz quyiroq qilib kesilganligi kichkina plastmassa idishchalarda nabor holida (6, 12, 24, 44 xil) va pastasimon bo'ladi.

Guash bo'yoqlari bilan ko'rgazmali agitatsiya vositalarini: e'lonlar, chaqiriqlar, chaqmoqlar, devoriy gazeta va hakazolarni badiiy bezashda akvarel bo'yoqlar va fluorestsent guashlarni qo'shib ishlatish yaxshi samara beradi. Badiiy bezash ishlaridagi ayrim element va yozuvlarga yorqinroq ifodalashda flusrestsentva lyuminestsent guashlarni boshqa ranglarga qo'shmay ishlatish kerak. Aks holda ulardagi yorqinlik dara-jasi pasayib ketadi. Bu bo'yoqlar ultrabinafsha nurlarda yarqirash xususiyatiga ega bo'lib, badiiy bezash ishlaridagi aktsent berilayotgan elementning yaqqol ko'zga tashlanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, badiiy bezash ishlarida anilinlar (nil bo'yoqlari) ham ishlatilib, ular asosan fotonlarni, mato, taxta, fanerlarning

rangini maqsadga muvofiq holga keltirishda qo'llanadi. Suvda eriydigan bu bo'yoqlarning xarakterli xususiyati shundaki, u materiallarning fakturasini berkitib yubormaydi, aksincha, uni yanada aniqlashtiradi.

Emulsiyali bo'yoqlar yozuv va boshqa badiiy bezash elementlari tushiriladigan yuzalarni gruntlashda ishlatiladi. Bu bo'yoq guash, akvarel, anilin va tempera bo'yoqlari bilan yaxshi qorishadi. Uni suv bilan eritiladi.

Tempera bo'yoqlari ham , moybo'yoqlar ham tush bo'yoqlariga oson aralashadi. Ularni ishlatishda turli texnik usullar qo'llash mumkin. Maktab intereridagi uzoq vaqt turadigan vitraj, panno va hakazolarni badiiy bezashda emulsiyali bo'yoqlardan tashhari moy-bo'yoqlardan ham foydalaniladi. Moybo'yoqlarni eritish uchun shisha idishlarda ishlab chiharilayotgan №1, 2, 3, 4 erituvchi suyuqlik, lok, skipidar va boshqa erituvchi-lardap fopdalaiish mvmkiiii. Bu bo'yoqlar oldindan gruntlangan eirtlarga ishlatiladi.

Yuqoriida aytilgan bo'yoqlardan badiiy bezash ishlarida foydalanishda turli shakldagi mo'yqalamlarga murojaat etiladi.

Mo'yqalamlar asosan uch xil bo'lib, yumshoqq (akvarel bo'yoqlarda ishlash uchun) yumoloq (moybo'yoqlarda ishlash uchun) va oval shaklida bo'ladi.

Akvarel bo'yoqlarni ishlatish uchun yumshoqq mo'yqalamlar qulay bo'lib, ular asosan suvsar, olmaxon, kolonokning junidan tayyorlanadi.

Mo'yqalamlar har xil bo'lib, ularning dastasidagi rahamlar

jun qismining yo`g`on-ingichkaligini bildiradi. Akvarel bilan ishlatiladigan yumshoqq mo`yqa-lamlar uchli bo`ladi. Bu esa katta yuzalarni bo`yash uchun ham , mayda detallarni ishlash uchun ham qulaylik yaratadi.

Moybo`yoqlar, tempera va guash bo`yoqlar bilan ishlashda yumoloq mo`yqalamlardan foydalaniladi. Yumoloq mo`yqalamlar №2 dan №30 gacha, yumshoqq mo`yqalamlar №1-13 gacha bo`lib, dastasining uzunligi 270 dan 500 mm gacha bo`ladi.

Katta yuzalarni gruntlashda fleytslardan (yumoloq, yassi yuzali kistlardan) ham foydalaniladi. Shuningdek, fleytslardan turli fakturali fonlar tayyorlashda ham foydalanish mumkin. Undan tashhari katta yuzalarni gruntlashda paralon valiklar ham keng qo`llanadi.

Mo`yqalamlarni ishlatish jarayonida ulardan to`g`rifoydalanish kerak. Ayniqsa akvarel mo`yqalamlarini ishlatayotganda ularni junli tomoni bilan idishga solib qo`yish yaramaydi. Chunki ularning uch qismi qiyshayib, vaqtincha ishga yaroqsiz bo`lib qoladi. Ularni maxsus tayyorlangan, o`yiqchalari bo`lgan taxtachaga dastasining temir qismibilan yoki stol ustiga yunglari stolga tegmaydigan qilib qo`yish kerak. Yumoloq mo`yqalamlarni ishlatib bo`lgandan keyin formasi bo`yicha qog`ozga o`rab qo`yish kerak. Agar moybo`yoqlar bilan ishlangan bo`lsa, ularni avval kerosin (yoki boshqa shu ishga yaroqli eritma)da tozalab, keyin sovunlab yuvib qo`yiladi. Uzoq muddat ishlatmay saqlab qo`yiladi gan mo`yqalamlarni selofan xaltachada

naftalin solib saqlanadi.

Badiiy bezash ishlaridagi yozuvlar sifatli va bir xil chizishi uchun trafaretlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Trafaret selluloid va tagidagi harf tushirish uchun belgilangan chiziqlar ko`rinib turadigan turli shaffof plastinkalardan tayyorlanadi.

Trafaret tayyorlashda harflarning konstruktiv tuzilishidagi ayrim o`xshashliklardan unumli foydalanish kerak, ya'ni trafaretda alfavitdagi ham ma harf-larning tasvirini qo`llash shart emas. Trafaretni ishlatish qulay bo`lishi uchun tekstda ko`proq uchraydigan larni va boshqa belgilarni ikkinchi qatorga tushiriladi (9-rasm). Trafaret bilan tekst tushiri-layotganda bo`yoqlar oqib ketmasligi uchun yungi yup?a va kalta mo`yqalam yoki gubka ishlatiladi. Trafaret bilan yozish uchun bo`yoqlarni quyiq qilib olinadi. harflarning o`rtasidagi tirqishlarini ushlab turish uchun holdi-rilgan joylardan yuzaga bo`yoq o`tmay, harflar uzu? bo`-lib tushadi. Bu joylarni keyin kichik mo`yqalam bilan birlashtirib chiqiladi. Trafaret bilan tekst tushiri-layotgan paytda trafaretni yuzaga qattiq bosib turish kerak. Uni ishlatib bo`lgandan keyin albatta tozalab yuvib qo`yish shart.

Normograf ham xuddi shu usul bilan tayyorlanadi. Faqat uni ishlatishda yuzaga qattiq bosilmaydi, ak-sincha, maxsus moslama yordamida tekst tushirilayotgan yuzadan biroz ko`tarib turadigan qilinadi. Normograf orqali tekst tushirishda bo`yoq to`ldirilgan shisha nay-chalar bilan harflarning konturlari chizib chi?iladi, so`ngra ularning ichini mo`yqalam bilan to`ldirib chiziladi. Normograflar odatda qalinligi 0,5 mm materiallardan

tayyorlanadi.

Trafaretni oddiy chizma qog`ozidan ham tayyorlash mumkin. Lekin u uzoq muddat ishlatishga yaramaydi. Shuning uchun qog`ozdan yoki kartondan tayyorlangan trafaretlarning bir tomonini alif yoki lok bilan qoplab qo`yilsa, uzoq muddat ishlatish mumkin. Ular yordamida moybo`yoqlar bilan ham harflar tushirish mumkin. Bunday trafaretlar yordamida nitroemal bo`yoqlar bilan yozuv tushiriladigan bo`lsa, trafaretning alif berilgan yuzasiga PVA elimi surtib qo`yiladi. Trafaretlar-ni kleyonkalardan ham tayyorlanadi. Lekin ular ma'lum vaqt o`tgandan keyin burishib holadi. Bunday payt-larda ularni tozalab yuvib, faner yoki orgalit orasiga taraig qilib uzoq vaqt bostirib qo`yilsa, yana avvalgi holatigaqaytadi.

Ulcham jihatidan katta harflar uchun trafaret tayyorlaganda alfavitdagi barcha harflarni qo`llash maqsadga muvofiqdir. Chunki katta o`lchamdagi trafaretlar tayyorlash aytarli qiyinchilik to`g`dirmaydi. Bu-ning uchun harf o`lchamida qalin kartondan shablon (andaza) qirqib olinadi. Bu shablon «O» harfi ko`rinishida bo`lib, deyarli barcha harflarning (J, M, F, Sh bundan mustasno) o`lchamlarini belgilash uchun xizmat qiladi.

Trafaret qirqqanda uning o`rtasidagi tirqishlari-ni ushlab holish uchun holdirilgan joylarini to`ldirish uchun ham mos teshikcha qirqib, trafaret tushirilgandan keyin to`ldirib chizish mumkin.

Trafaret tayyorlashning yana bir turi mavjud bo`lib, unda faqat harflarning elementlari o`yiladi. Bu ele-mentlar

birlashtirilishidan, ya'ni bir harfni yozishda bir necha trafaret teshikchalaridan foydalanilganda umuman harflarda uzilgan joylar bo`lmasligi mumkin.

Trafaretni yana shunday turi borki, unda yuqorii si-fatli harflar hosil qilish mumkin. Lekin bu usul ancha ko`p vaqtni oladi.

Tekst harflari qalam bilan yozuv tushiriladigan yuzaga belgilab olinadi. Uning ustidan rezina elimi surtilgan kalka yopishtirib chiqiladi. Bu kalkadan belgilangan harf chiziqlari ko`rinib turadi. Shu chiziqlar bo`yicha kalkani o`tkir skalpel bilan qirqib chiqiladi. harflarning o`rtalaridagi tirqishlarini holdirish uchun o`sha joylarning kalkasini qaytadan yopishtirib qo`yiladi. Natijada harflar chiziqlarining o`rni ochilib holadi. U erdagi rezina elimlarini o`chirg`ich bilan tozalab tashlanadi. Shundan so`ng juni kalta mo`yqalam yoki gubka bilan kerakli rangdagi bo`yoq surtiladi. Bunday trafaretni aerografik usul bilan ham to`ldirish mumkin. So`ng kalka ko`chirib olinadi va holgan rezina elimlari tozalab tashlanadi. Natijada yuqorii sifatli tekst hosil bo`ladi.

Maktabdagi badiiy bezash ishlarida hajmli harflar ham ishlatiladi. Bunday harflar kartondan, fa-nerdan (lobzik bilan) arralanadi ham da penoplastdan qirqiladi va devoriy gazeta, sinf burchagi, mashgulot-lar jadvali va hakazolarda qo`llashmumkin.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bunday harflarning o`lchamlari katta yoki kichik bo`lishi mumkin. Shunga ko`ra ularni to`g`rijoylashtirishga, kompozitsiya chiroyli chizishiga harakat qilish kerak. Bunda harflar o`z effektini yo`qotmasligi shart. hajmli harflardan o`z o`rnida foydalanish, ularni faqat devoriy

gazetalarning yoki boshqa badiiy bezaklarning nomlarini yozishdagina qo'llamay, katta-katta harfli (shriftli) pannolarda, shiorlarda turli ranglarga bo'yalgan holda ham ishlatish lozim. Bunda tayyorlangan mazkur harflarni kerakli joylarga mayda mixlar yoki elim bilan yopishtirish mumkin.

Maktabdagi badiiy bezash ishlarida foydalaniladigan hajmli harflarni tayyorlash uchun penoplast juda qulaydir. Odatda penoplastdan turli o'lchamdagi (10 sm dan 50 sm gacha) harflar tayyorlanadi. Penoplastning ba'zilari yumshoq bo'lib, mayda harflarni qo'llashda birmuncha qiyinchilik to'lg'adi. Penoplast o'bo'lgani uchun har qanday fonda ham yaxshi ko'rinadi. Hatto, oz fonda ham yoruq-soya hisobiga uni bimalol o'qish mumkin. Lozim bo'lsa, penoplast harflarni badiiy bezash ishlaridagi umumiy koloritga bo'ysundirish uchun alyuminiy yoki bronza poroshogidan tayyorlangan rangga, asosdagi umumiy rangga ham bo'yalishi mumkin. Penoplastdan harflar tayyorlash uchun elektr dazmol yoki elektr plita spiralidan yasalgan qurilmadan foydalaniladi. Bunda elektrkamaytirgich orqali tok o'tkazilgan spiral simi qizib penoplastni eritib qirqadi. Bu plastinkaning qalinligi bir xil bo'lib chitali. Simni yuqoriilatib yoki pastlatib penoplast plastinkalarini turli qalinlikda qo'llash mumkin. Hosil bo'lgan plastinkalardan o'tkir skalpel bilan harflar qirqiladi. Penoplastni qo'llash uchun temir arradan yasalgan pichoq juda qulay bo'ladi. Chunki u yupqa materialdan tayyorlangan, ayni vaqtda bukilib ham ketavermaydi.

Maktabdagi «A'lochilar», «Maktabimiz faxri» va boshqa

stendlarning sarlavhalarini yozishda metall lentadan tayyorlangan harflardan ham foydalanish mumkin. Bu harflar qovurqasimon qilib yasaladi va stendga «Moment», «EPO» supertsement va № 88 elimlar bilan yopishtiriladi.

Maktablarda bayram va boshqa tantanali kunlar munosabati bilan turli shior va chaqiriqlar yoziladi. Bunday chaqiriqlar asosan matoga yoziladi. Buning uchun matoni yog`och ramkaga tortiladi va jumlashshg uzun-qisqaligi, harflarning balandligi, shiorning necha qator bo`lishi belgilab olinadi. Bunda yozuv qatorining tagida yuqoriidagiga nisbatan ko`proqjoy holishini hisobga olish kerak. Shunda qatorlar muvozanati saqlanadi. Yozuv bir tekis chizishi uchun lineykadan emas, balki bo`rga yoki quruq bo`yoq kukuniga ishqalangan ipdan foydalanish kerak. Bunda ipni ramkaning ikki yon qirrasidagi belgilar ustidan o`tkazib ramka chetlari-ga tortiladi, keyin uning o`rtasidan yuqoriiga tortib turib qo`yib yuboriladi, shunda matoda ipning izi holadi.

Matoga yozish uchun emulsiya bo`yoqi ishlatiladi yoki ilitr suvga bo`r kukunini qo`shib quyiqligi qaymaqdek bo`yoq tayyorlab olinadi. Bu qorishmaga 50 gr suyultirilgan duradgorlik elimi yoki PVA elimi aralashtiriladi. Ayrim hollarda matoda mo`yqalam yoki fleytsning yaxshi sirqalishi uchun qorishmaga oz miqdorda guash bo`yoqi ham qo`shiladi.

Yozuv maxsus ishlov berilgap va kerakli o`lchamdagi yumoloq mo`yqalamlarda bajariladi.

Tekstni yozishga kirishganda etarli amaliy ko`nikmasi bo`lmaganlar qalam bilan harflarning o`rnini belgilab oladi.

Tekstdagi harflarning umumiy sonini hisoblab chiqiladi va o`rtadan boshlab ikki tomonga taqsimlab chiqiladi. Tekstni yozishda bo`yoqlarni ehtiyot qilib ishlatish kerak. Chunki keraksiz joyga tomgan bo`yoq tomchisini ketkazish juda qiyin. harflarni yoza-yotganda ularni yuqorii boshlanish chiziqlariga tekislab qog`oz qo`yib, shu qog`oz ustidan yozishni boshlansa, harflarning yuqorii chetlari tekis chizadi. Xuddi shuningdek pastki tomonlarini ham tekis chiharish mumkin. Yog`och ramkasiz matoga yozish biroz qiyin bo`ladi. Uni polga mayda mixlar bilan tortib yoziladi. Yozganda ham hol bilan mato orasiga polni ifloslantirmaslik uchun gazeta va boshqa keraksiz qog`ozlar to`shaladi.

Badiiy bezash ishlarida qo`llanadigan materiallar juda xilma-xil bo`lib, ularning . ham masi to`g`risida to`liq ma'lumot ;berishni lozim topmadik. Badiiy bezash ishlariga qiziquvchi o`quvchilar ana shu ishlar uchun kerakli materiallar haqidatasviriy san'at o`qituvchisidan kerakli ma'lumot va ko`rsatmalar olishlari mumkin.

O`ituvchi rapgshunoslik asoslariga tayanib, o`quvchilarshshg yosh va texnik imkoshshtlarshsh hisobga olnb, ularga munosib shaklda rang va rang hodisalari haqidagi muhim tushunchalarni berishi, bilim, ko`nikma va malakalarni singdirishda osondan qiyinga, soddadan murakkabga printsipini qo`llashi lozim. K. D. Ushinskiy o`qtirganidek, «bolalar eski narsalarni uzluksiz takrorlab va har safar ozgina yangi narsani bilib olib juda ko`p miqdordagi faktlarni o`zlashtiradilar. Ular bir faktdan keyin ikkinchisini o`rgansalar va yangi narsani eski

narsaning mustahkam poydevoriga qo`ymasalar bunday ko`pfikirlarni o`zlashtira olmaydilar

O`quvchilar ana shu tariqa hilma-xil materiallar , asboblari , badiiy bezash ishlarini bajarishning har-xil yo`llarini o`rganishlari kerak.

2.3. Amaliy-bezak san'atila tabiiy shakllarni stilizshshyalash.

Boialar naqsh elementlarini amaliy san'at namunalaridan olishadi yoki mustaqil ravi1dda tabiiy yoki geometrik shakllarni stilizatsiya qilib ishlatishadi. Stilizatsiya ikki xil yo`l bilan bajariladi. Birinchisi, shaklini soddalashtirish, ikkinchisi, murakkablashtirish. Soddalashtirish yoki murakkablashtirish deganda, biz faqat narsalar tasviri yoki naqshlar tasvirini soddalashtirish yoki murakkablashtirishnigina emas, balki ularning ranglari o`zgartilishini xam tushunamiz. Amaliy san'at ustalari ijodida hayotda uchraydigan hamma narsalar stilizatsiya qilinib, ular amaliy san'at buyumlarida o`z aksini topadi.

Suhbat davomida o`qituvchi stilizatsiyalanmagan tabiiy shakl va ularning stilizatsiyalangan shakllarini jadval orqali yoki doskada rasmini chizish orqali namoyish etadi. Shuningdek, dars jarayonida soddalashtirilgan stilizatsiya xaqida ham ko`rgazmali suhbat o`tkaziladi.

Stilizatsiyalash jarasnini bevosita bolalar ko`z o`ngida ko`rsatish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o`qituvchi doskaga narsalarning real tasvirini, uning yoniga stilizatsiyalangan tasvirini chizib ko`rsatadi. Xuddi shu ish bolalar tomonidan doskada ham bajariladi va u sinfda ijodiy vaziyat hosil bo`lishiga yordam beradi. Ana shunday uzoh davom etmaydigan mashg`lardan so`ng o`qituvchi dare uchun maxsus tayyorlangan tabiiy shakllarning haqiqiy ko`rinishi tasvirlangan jadvalni doskaga ilib qo`yadi va ularni bolalar o`z daftarlarida ko`chirib olishlariga ko`rsatma beradi. So`ngra bolalar ularni o`z raem daftarlarida mustaqil

ravishda stilizatsiyalaydilar. Dare jarayonida bolalarga har bir naqsh elementi qaysi tabiiy shakldan olinganligi, bu naqsh elementlarining nomi haqida ma'lumot berib boradi. Xalq amaliy san'atida keng tarqalgan naqsh elementlaridan - barg, shobarg, bodom, oygul, bofta, uchbarg, sebarrgul, ko`pbarg kabilar hisoblanadi. 10-rasm.Dars oxirida bolalarning bajargan ishlari namoyish taxtasiga qo`yiladi va ular birgalikda tahlil qilinadi.

2.4.Qog`ozgz yog`och buyimlarga naqsh solish tehnologiyasi.

Qog`ozga naqsh chizishga urganish uchun dastavval to`g`ri, egri, tik, aylana chiziklarni chamalab bo`lishdan boshlanadi. O`simliksimon naksh elementlari barglar, gullar, boglam, tanob va boshqalarni katak daftarda maxsus turlar asosida qora qalamda chizish mashq silinadi (10-11- rasmlar). Naqsh elementlarini ravon jonli chizishga o`rgatiladi. Chizish vaktida simmetriya, assimetriya va boshtsalarga e`tibor beriladi (12-rasm). Bu elementlarni quyidagi boskichda chizgan ma`kul. Dastavval barg elementlari sungra gullar, undan keyin bargli gullar va nihoyatda tanob, band, shukufta, boglam va boshka elementlarni chizish mashk kilinadi.

Naqsh elementlarini yaxshilab urganib olgandan sung, oddiy natssh namunalarini kora kalamda oddiydan murakkabga sarab 5—6 marta takror-takror chizishni albomda mashk kilinadi. Stilizatsiya, assimetriya, ritm va boshtsalarga alox,ida e`tibor beriladi. Salamni engil ravon bosmas-dan chizish kerak. Bu nakshlarni yoddan yaxshilab bemalol chizishni urganib olgandan sung, buyok-lar va rangshunoslikdan ma'lumot olinadi. Natsshda asosan guash buyogi ishlatiladi. Bundan tashkari sikma tyubikli akvarel kraskami oq guashga kushib ham ishlatiladi. Guash buyogida nakshga utishdan oldin kogoza politrada ranglar kolyori tayyorlash mashk kilinadi. Guash judayam suyuk buyalsa unda naksh yuzasi tekis buyalmaydi. Agarda guash x,addan tashkari kuyuk va kalin berilsa unda buyok murt bulib kuchib

ketadi.

Kolyor tayyorlashda chinni yoki plastmassa idishchalardan foydalaniladi. Xar bir rangli guashga alohida-alohida yogoch kurakchalar ishlatiladi. Nakshlarni buyashda elementlarning aniqligiga, simmetrikligiga e'tibor berish; rang gammasiga, koloritiga, ranglarni bog'likligiga va tinikligiga; kuzga yakkol tashlanadigan dog-larning bulmasligi, nakshlarni toza va ozoda chikishi, naksh kompozitsiyasining ta'sirchanligiga buyok kavatlarining tekis chikishiga, guash texnologiyasiga kat'iy rioya kilish kerak.

Naqsh biror gammada masalan, yashil, zangori, jigar rang, pushti, limon rang yoki boshkalarda buyaladigan bulsa, kaysi rang asosiy kolorit rang bo'lsa shu xukmron rangga buysundiriladi.

Naqshdagi qolgan har qanday ranglar shu rang gammasini buzmasligi kerak (13-rasm). Nakshlarni ishlashda garmoniya, faktura, va kont-rastlikka, e'tibor berish kerak.

Qog'ozga chizilgan naqsh kuyidagi boskichda buyaladi: eng avvalo nakshning zamini, ya'ni eng katta yuzalarni, keyin kichik yuzalar sungra barg, gul, runcha va boshkalari nakshning bandlari buyaladi. Naqshning gullari, guncha va barglariga pardoz beriladi, ya'ni taroq beriladi (14-rasm). Nakshning barg va gullari uch xil texnikada bezaladi:

Parallel ingichka chizik taroklar yordamida.

Barg va gullarning urug va changchilarini tasvirlash.

Targilning urniga edirma usullardan foydalaniladi.

Edirma usuli ranglarni tukdan ochlashib ishlatish yuli bulib,

muykalamda surkalgan rangni quruq suvli muykalamda asta edirib tarkatiladi. Bu texnikani tojik nakkrshchilik maktablarida kup uchratish mumkin. Xuddi shu edirma texnikasi Yapon nakshlarida uziga xos aks ettirilganligini kurish mumkin.

Naqshning ok bandlari va obilari tortiladi. Naqshlarni buyashda yukorida aytib utilgan xar xil muikalamlar ishlatiladi.

Yogoch buyum jilvirda yaxshilab tekislanadi. Mixlangan joylarini yana kayta kurib chikiladi. Notekis joylari har xil (shpatel) kurakchalarda shpaklyovkalanadi. Shpaklyovka 2—3 marta berilishi x,am mumkin. Berilgan shpaklyovka kurigandan sung jilvirda yaxshilab tekislanib bir sidra ok guashda buyaladi, ya'ni gruntovka kilinadi. Nakshning axtasi tayyorlanib xoka yordamida tushuriladi va siyox, kalam kilinadi. Yukorida aytib utilgan boskichda buyaladi va ish sungida rangsiz ' lokda katta muykalamda 2—3 marta loklanadi.

III.XULOSA.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim sahosidagi tub islohatlarga etibor olib bormoqda. Chunki kelajak avlodni, biluimli, xar tamonlama yetuk shaxs qilib tayyorlashda pedagog o'qituvchilar oldiga katta masyuliyat yuklamoqda. Shu bilan biga fan texnika taraqqiyoti natijasida muxandislik fanlariga bo'lgan talab oshib bormoqda.

Shuning uchun MBlimning kirish qismida badiiy bezaksan'atining ahamiyati va amaliy san'atning va amaliy bezak san'atining tarixi haqida, xukumatimiz tamonidan olib borilayotgan ta'lim saxosidagi qarorlar va kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Davlat t'alim standartlarida badiiy bezak san'ati fani oldiga qo'yilgan asosiy vazifa larni, perispektva fanining fan va texnika taraqqiyoti davridagi ahamiyati ha1qda ma'lumotlar to'pladim, ushbu ma'lumotlar asosida kirish qismini yozdim.

Bo'limning ikkinchi qismida bugungi kunda oily oquv yurtlarida, kasb hunar kolejlari va akademik litseylarda perispekti va fanini o'qitish, maktabda badiiy bezak ishlarida naqshdan foydalanish mavzusining tahliliy qismi, dekorativ-amaliy san'atning maktab badiiy bezash ishlaridagi roli, inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yirindisini o'zlashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda tuldirib va boyitib borishni, o'zining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga k.aratishni urgatish kerak. Bu vazifa ukuvchilarning badiiy bezash ishlarini ta'lim-tarbiya jarayoni

bilan o`zviy bog`liq xolda kengaitirish va rivojlantirishni taqozo etishi, badiiy bezash ishlarida foydalaniladigan asbob-uskunalar, badiiy bezash ishlarida foydalaniladigan asbob-uskuna va materiallar quyida badiiy bezash ishlarida foydalaniladigan asbob-uskunalar (ish qurollari) va materiallarning ayrimlari haqida to`xtalib o`tdim. Amaliy-bezak san'atila tabiiy shakllarni stilizshshyalash, tabiiy shakl va ularning stilizatsiyalangan shakllarini jadval orqali yoki doskada rasmini chizish orqali namoyish etadi. Shuningdek, dars jarayonida soddalashtirilgan stilizatsiya xaqida ham ko`rgazmali suhbat o`tkazish yo`llari haqida, qog`ozgz yog`och buyimlarga naqsh solish texnologiyasi, mayeriallarga qog`ozga bo`yoqlar va tush bilan naqsh bo`yash texnologiyasini yoritishga harakat qildim

Ushbu Bo'limni yoritishda S.Bulatovning "O`zbek xalqs amaliy bezak san'ati", Q.Qosimov "Naqqoshlik san'ati." va boshqa amaliy san`atga taluqli bo`gan adabiyotlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Prezidentimizning asarlaridand foydalandim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. I.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, o`zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo`llari va coralari . Toshkent 2009.
2. I.Karimov. Buyik kelajak sari. Toshkent. 1998y.
3. I.Karimov Yuksak manaviyat engilmas kuchdir. toshkent. 2008y

4. I.Karimov.O`zbekiston XXI asr bosag`sida xavfsizlikka taxdid,barqororlik sharoiti va taroqqiyot kafrolatlari Toshkent.1997.
5. I.Karimov .Barkamol avlod orzusi.Toshkent 1999.
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.Barkamol avlod O`zbekiston taraqqyotining poydevori. Toshk. 1997.
7. Tasviriy san'at. Umumiy urta ta'limning davlat ta'lim stan: va o`quv dasturi. Toshkent: Sharq,1999.
8. Жиганов Б. В. Оборудование школьных интерьеров. М.: «Просвещение», 1972.
9. Зуев Д. Д. Художественное оформление школы. Куйбышевское книжное из-во, 1970.
10. Интерьер школы. В. Н. Шиххова и др.. М.: «Просвещение», 72
11. Народное искусство Узбекистана. Тошкент: Гафур Гулям, 1979.
12. Орипов Б..Тасвирий санъат дарслари самарадорлигини ошириш Тошкент: Укитувчи, 1978.
13. Основы декоративного искусства в школе, (коллектив). Москве Просветление, 1981.
14. Понамарков СИ, Декоративное и оформительское искусства в I Москва; Просвещение, 1979.
15. Интерьер школы. Под. ред. В. Н. Шиххова и Т. Е. Астровой. М.: «Просвещение», 1972.

16. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. Москва: Просвещение, 1974.
17. Сергеев Б.С Чеканка по меди в Узбекистане. Тошкент, 1962.
18. Жиганов Б. В. Оборудование школьных интерьеров. М.: «Просвещение», 1972.
19. Зуев Д. Д. Художественное оформление школы. Куйбышевское книжное из-во, 1970.
20. Орипов Б..Тасвирий санъат дарслари самарадорлигини ошириш Тошкент: Укитувчи, 1978.